

BOLALAR SHE'RIYATIDA YUMORISTIK KULGINING XUSUSIYATLARI
HAMDA NAZARIY ASOSLARI HAMDA KULGI YARATISH AN'ANALARI

Sherbekova Gavhar Yaxshibayevna

BuxMTI akademik litseyi o'qituvchisi

Qobilova Aziza Ahrorovna

BuxMTI akademik litseyi o'qituvchisi

Nuriddinova Mehriniso Fatxiddinovna

BuxMTI akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek bolalar she'riyatida yumoristik kulgi yaratish an'analari, yumoristik kulgining xususiyatlari hamda nazariy asoslari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Yumor, kulgi, bolalar adabiyoti, hazil, hajv, yumor, mutoyiba, kinoya, gelotologiya, kulgining chastotasi, professional komediya.

Yosh lirik qahramon o'ziga bergan dastlabki bahosi bilan havas uyg'otishi turgan gap. Chunki u o'zi yasamoqchi bo'lgan bufetni shu qadar maromini keltirib ta'riflaydiki, o'quvchi uning har bir qismini aniq-tiniq tasavvur qiladi, yuz yil xizmat qilishiga kafil berayotganiga chippa-chin ishonadi. Uning maqtanishiga ko'ra duradgorlik anjomlariga ham diqqatimiz ortadi:

Menda hamma narsa bor,
Deysiz naq ustaxona,
Arra, randa, bolg'alar
Parmadan ikki dona...
Ombir. Mixlar, egovlar...
Sanasam miya g'ovlar.

Nihoyat, shu bugunoq bufet tayyor bo'lishini ko'zlagan yosh lirik qahramon ish boshlamoqchi bo'lganda, arra taxtaga tiqilib qoladi. Uni kesishga kuchi yetmaganiga iqror bo'lgan "usta" taburetka yasashga kirishmoqchi bo'lganida, bolta sopi "chirik"ligidan sinadi. Bu ham yetmaganday, devorga, so'ngra bolaning peshanasiga kelib tegib, g'urra qiladi. Shu sababli bola taburetka yasashdan voz kechib, bobosining rasmi uchun ramka yasashga unnamoqchi bo'ladi. Bunga bobosining portreti hanuz ramkasizligini vaj qilib ko'rsatadi ham. Ammo nachoraki, yelim yopishmagani yetmaganday, unga mix qoqmoqchi bo'lganida:

Qalbaki ekan bari,
Sira to'g'ri kelmadi.
Qurib ketsin mixlari,
Ramka, afsus, bitmadi, –

deya oxiri o'choqda yoqish uchun tarasha qilishga kirishadi va bu ishga qo'li "binoyiday kelishadi".

Albatta, she'ning yakunigacha sabr qilgan o'quvchi kulib yuborishdan o'zini tiyolmaydi. Qo'lidan kelmaydigan ish bilan maqtanib, bor taxtani nobud qilib, tarashaga aylantirgan noshud ustabuzarmon shu taqlid o'zini fosh qilib qo'yadi.

Gohida bolalar tilida kattalarga taqlidan makon va zamonning eng muhim qirralari yarq etib ko'rinadi. Masalan, G'afur G'ulomning bolalarning yozgi ta'til taassurotlari haqidagi "Chaqchaqlashaylik" she'ri lof asosida qurilgan. Undagi tabiiylik, samimiylik va bolalarga xos zavqovarlik – sirtidan qaraganda mantiqsizday tuyulgan detallarni kulgili yumorga aylantira olgan:

Bir echkidan besh qo'zi
Olganmish Yusuf o'zi.
Oysha o'z qo'ltig'ida
O'n besh jo'ja ochibdi,
"A", "V" vitaminlarni
Don o'rniga sochibdi,
Jo'jalar uch kundayoq
Tovuq, xo'roz bo'libdi.
Sho'rvasi shirinmish-u,
Tuxumi oz bo'libdi.

Yoki:

Derki: – Ochildi chaman
Olti tup ekkan paxtam.
Olachipor tovug'im
Terishga berdi yordam²⁹.

Bu hazil she'rda davr bolalarining mehnatsevarlik, dala-paxta ishlariga qiziqishi, o'zlari yashagan muhit va ular anglab yetgan hayotiy haqiqatlarni shu xilda idrok qilishi ko'rinib turibdi. Ayniqsa, paxta yakkahokimligi davri katta-yu kichikning kech kuzgacha dala izg'irinida majburiy mehnatga jalb qilinganidan zerikib ketgan bolajonlarga paxta terishda tovuqning yordam berishi haqiqatan juda kulgili bo'lib, o'quvchi zavqini oshiradi. Shoir shu tariqa yumor vositasida davr siyosatidagi maynavozchilikka ham shama' qilgan.

Polyak bolalar shoiri Yan Bjexva fikricha: "Yumor – bolalarga atalgan she'rning xamirturushi bo'lmog'i shart. Biroz yumor, picha o'git va falsafa bilan yo'g'rilgan qisqa vaznli, o't chaqnagan qofiyalar asosida bitilgan she'r o'quvchi xotirasida uzoq saqlanib qoladi"³⁰. Darhaqiqat, yumorda kulgining sifati va darajasi uni idrok etuvchilarning salohiyati bilan ham belgilanadi, deyish mumkin. Chunki, biror hodisa yoki harakatdagi nomuvofiqlikni zukko o'quvchigina tez ilg'aydi va darhol munosabatini bildiradi. Uni bema'nilik deb atash yoki shunchaki komiklik deyish ham mumkin. Komiklikda ijobiy ottenka – urg'u kuchli bo'lsa, bema'nilikda salbiylik, masxaralash, kinoya ustunroqdir. Shu sababli hatto kulgining ham sifatleri borligiga ishonch hosil qilamiz. Binobarin, yuqorida ko'zdan kechirilgan she'rlardagi kulgili holatlar aynan yumor hisoblanadi. Badiiy manzara-

tasvir orqali boshqalarni shu tariqa qiziqтира olish qobiliyati yumoristik ifoda mahoratidan dalolatdir. Shu bois, yumorni bolalar uchun mo'ljallangan asarlarning yuragi ham deyish mumkin.

Darhaqiqat, yumorning har bir detali ko'ngilga zavq bag'ishlash xususiyatiga ega. Ammo adabiyotdan shunchaki ko'ngil ochishdan tashqari ko'proq narsa talab qilinadi. Ayni shu jarayonda yumorning ijtimoiy vazifasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Yana bir jihatdan, yumoristik she'rlar qaysi davrda, qanday mavzuda yozilmasin, uning zavqovarligi va kichkintoylar fe'l-atvoriga xos u yoki bu kamchilikni oynadek o'ziga ko'rsata olishi bilan ahamiyatlidir. Shunga ko'ra, ularning ohangi, ritmi, qofiyasi hamisha yumorning o'zidek zavqli, o'ynoqiligi bilan ajralib turadi. Aytaylik, bolalar shoiri X.Komilovning "Qo'shoq nega beo'rtoq?" she'ri davr nuqtayi nazaridan ham e'tiborga molik:

Uch yildirki // O'ylar Qo'shoq:
– Kimni qilsam // Ekan o'rtoq?
Qo'shnim Adham // Yaxshi, biroq
Jahli yomon, // Fe'li chatoq.
Dilmurod sal // Kalondimog',
Salimjonning // Shimi yamoq.
Lapas jo'ram // Yaxshiku-ya,
Ammo u ham // Shalpangquloq.
Alisherning // Sochi paxmoq,
G'anisher-chi, // Sal-pal ahmoq.
Ahmad qoloq, // Rahmat shaloq,
Eshmat o'poq, // Toshmat so'poq³¹.

Shoir Qo'shoq timsolida bugungi davr yosh avlodiga xos bo'lgan "kasallik" – do'st tanlashda nuqul o'zgan ayb qidirishi, ayniqsa, ularni "shimi yamoq", "shalpangquloq", "sochi paxmoq" deyishi ayrimlarning uni "o'poq", buni "so'poq" deyishiga hamohangligi bilan kulgilidir. E'tiborli jihati, "bu – Eshmat", "bu – Toshmat", "o'poq-so'poq" degan so'zlar yumoristik she'rlar uchun ham an'anaviy. Faqat, Qo'shoqning o'zi zamondosh kichkintoylar timsoli sifatida yumoristik tasvir etilgani jihaidan yangilangan.

X.Komilovning "Chorasiz rassom" she'ridagi muloqot-suhbatda esa aksincha, uddaburon, so'zga chechan bolakayning vaziyatdan chiqish uchun qo'llagan usuli g'oyat zavqli:

– I-ye, nega rasmingda // Chizding qizil yaproqlar?
– Chunki bu suratimda // Tasvirladim kuz chog'lar.
– Binolar ham negadir // Qizil ranga bo'yalgan?
– Bilmadingmi, devori // Qizil g'ishtdan terilgan.
– Ko'chalar ham qip-qizil, // Tushuntirib ber buni?!
– Voy nodon-ey, rasmni // Chizdim-da bayram kuni.
– Xo'sh, unda nega osmon...
– Uf-f, buncha ko'p so'rog'ing, // Qanday qilay bo'lmasa
Boshqa rangli bo'yog'im³².

Chindan ham, yosh rassomning topqirligi o'quvchi labiga tabassum paydo qiladi. U chizgan suratni tomosha qilayotgan tengdoshi bir xil rangli qalamda chizilgan suratdan ayb qidirishdan qanchalik charchamasa, yosh rassom o'z topqirligi bilan bo'sh kelmaydi. Yaproq qizil rangli bo'lsa, shuni ham bilmaysanmi, demak, kuz; binolar qizil bo'lsa, bugungi kunda qizil g'ishtdan terilgan devorlar urf bo'lib qoldi; ko'chalar qizil bo'lsa, bu bayram belgisi, hammayoqda alvonlar va hokazo. She'r oxiridagi noilojlikdan boshqa rangli bo'yog'i yo'qligini tan olishga majbur bo'lishi esa tabiiy kulgini keltirib chiqaradi.

Shunga ko'ra aytish mumkinki, bolalarga bag'ishlangan yumoristik she'rlar kichkintoylar qalbiga zavq-shavq olib kirishi bilan birga, ularning ma'naviy olamini boyitishga, badiiy so'z mohiyatini idrok etishni o'rgatishga qaratilgani bilan ham muhim adabiy-estetik ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Фулом. Мукаммал асарлар тўплами. 12 томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1983. – В. 124.
2. Бу haqda qarang: Ашуров Б. Турсунбой Адашбоевнинг поэтик маҳорати. – Тошкент: Фан, 2011, 57-б.
3. Комилов Х. Ким қандай ухлайди? – Тошкент: Шарқ НМАК, 2011. – Б. 26.
4. Адабиёт назарияси. Икки томлик. – Тошкент: Фан, 1979. II том. – 312–313-б.
5. Болотнова Н.Н. Филологический анализ текста: учебное пособие – Москва: «Флинта», 2007. – 520 с.
6. Фафур Фулом. Мукаммал асарлар тўплами. 12 томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1983. – В. 121.
7. Adizova N. Qiziqmachoqlarning janriy tabiati va badiiyati. ff.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 50 b.